UDK: 81-13 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a204**

“MAHBUB UL-QULUB” DAGI TURKIY SO‘ZLARNING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI

ОТНОШЕНИЕ ТУРЕЦКИХ СЛОВ В “МАХБУБ УЛ-КУЛУБ” К СОВРЕМЕННОМУ УЗБЕКСКОМУ ЛИТЕРАТУРНОМУ ЯЗЫКУ

THE RELATION OF THE TURKISH WORDS IN “MAHBUB UL-QULUB” TO THE CURRENT UZBEKI LITERARY LANGUAGE

Muminova Umida Qarshiyevna[1]

[1]**Muminova Umida Qarshiyevna** – Termiz davlat pedagogka instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

“Mahbub ul-qulub” dagi turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohalardagi o‘zgarishlar, yangilanishlar ta’sirida tilning lug‘at boyligida yangi so‘z va atamalarning vujudga keladi, ayni paytda, ma’lum leksemalar eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanadi. Maqolada qo‘llangan turkiy so‘zlarning talaygina qismi hozirgi kunda ishlatiladi. Masalan, Alisher Navoiy istifoda qilgan qarindoshlik, inson tana a’zolari, zoonimlar, vaqtni ifodalovchi birliklar, sonlar, maishiy, ijtimoiy-siyosiy leksemalar, shaxs tushunchasi, belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlarning ko‘pchiligi bugun adabiy tilimizda ayni shakl va ma’noda qo‘llanib kelinganligini ko’rishingiz mumkin.

Аннотация

Изучение отношения турецких слов в “Махбуб ул-Кулуб” к современному узбекскому литературному языку показало, что общественно-политические процессы, научно-технический прогресс, изменения и обновления в экономической и образовательной сферах, происходящие в обществе под его влиянием влияние, в лексике языка появляются новые слова и термины, в то же время некоторые лексемы устаревают и становятся исторической категорией.Большинство турецких слов, использованных в статье, используются и сегодня. Например, Алишер Навои использовал родство, части человеческого тела, зоонимы, единицы времени, числа, бытовые, общественно-политические лексемы, понятие лица, а большинство слов, обозначающих характер-характеристики, имеют в нашем литературном языке одинаковую форму и значение. сегодня вы можете видеть, что нода используется.

Abstract

The study of the relation of the Turkish words in “Mahbub ul-Qulub” to the current Uzbek literary language showed that socio-political processes, scientific and technical progress, changes and updates in the economic and educational spheres taking place in the society under its influence, new words and terms appear in the vocabulary of the language, at the same time, certain lexemes become obsolete and become a historical category.Most of the Turkish words used in the article are used today. For example, Alisher Navoi used kinship, human body parts, zoonyms, time units, numbers, household, socio-political lexemes, the concept of person, and most of the words denoting character-characteristics have the same form and meaning in our literary language today. you can see that noda is used.

Kalit so’zlar*: qarindoshlik, inson tana a’zolari, zoonimlar, vaqtni ifodalovchi birliklar, sonlar, maishiy, ijtimoiy-siyosiy leksemalar, shaxs tushunchasi, belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohalardagi o‘zgarishlar, yangilanishlar.*

Ключевые слова: *родство, части тела человека, зоонимы, единицы времени, числа, домашнее хозяйство, общественно-политические лексемы, понятие человека, слова, обозначающие признаки и признаки, общественно-политические процессы, научно-техническое развитие, экономические и перемены, обновления в образовательные области.*

Key words: *kinship, human body parts, zoonyms, units of time, numbers, household, socio-political lexemes, concept of person, words denoting signs and characteristics, socio-political processes, scientific and technical development, economic and changes, updates in educational fields.*

KIRISH

Asarda qo‘llangan turkiy so‘zlarning talaygina qismi hozirgi kunda ishlatiladi. Chunonchi, Alisher Navoiy istifoda qilgan qarindoshlik, inson tana a’zolari, zoonimlar, vaqtni ifodalovchi birliklar, sonlar,maishiy, ijtimoiy-siyosiy leksemalar, shaxs tushunchasi, belgi-xususiyatni bildiruvchi so‘zlarning ko‘pchiligi bugun adabiy tilimizda ayni shakl va ma’noda qo‘llanib kelmoqda. Masalan, zamonaviy o‘zbek tilida “tirik mavjudotning ko‘rish a’zosi”ni anglatuvchi **köz** (O‘TIL,II,506) so‘ziilk bor Kultegin bitigtoshida uchraydi: *körür közüm körmäz tek boltï* **-** ko‘rar ko‘zim ko‘rmasdek bo‘ldi(DTS,320). Leksema “Qutadg‘u bilig” asarida “ochko‘z, xasis”, “tikilib qaramoq”, “tabassum

qilmoq” semalarda qayd etilgan: *Közi ač kiši ačlïq qozur* – ko‘zi och kishi o‘lgandan keyin to‘yadi; *Sevär sevmäz ersä seŋä ačtï köz; kičigkä köz ačsa bezüklük bolur* (DTS,320-321). Tekshirilayotgan manbada o‘zining dastlabki ma’nosida keladi: *Közni asramaqdur barča nämahram yüzdin va tïlnï tutmaqdur barča nämašru’ sözdin* (MQ,38).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “farzandi yoki farzandlari bo‘l-gan xotin (o‘z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin” tavsiflangan **ana -** ona (O‘TIL,III,130) so‘zi “Mahbub ul-qulub” asarida ayni semada keltirilgan: *Agar sa’yig‘a yarasha olur xayoli bo‘lg‘ay, ota merosi va ona sutidek haloli bo‘lg‘ay* (MQ,15). Atama dastlab “Oltun yorug‘” asari va Turfon matnlarida ifodalangan: *anasin babasïn oğlanï sevärčä* – ota-onasini farzandi kabi yaxshi ko‘radi (DTS,43). XI asr yodnomalarida o‘z ma’nosini davom ettirgan: *kenč anasin emdi* – bola onasini emdi (DTS,43).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadimgi turkiy, eski turkiy manbalarda**oğul** (DTS,364) leksemasi«bola, o‘g‘il bola», «o‘g‘il farzand» ma’nolaridan tashqari, hayvon va qushlarning bolasiga nisbatan ham qo‘llanilgan.Masalan, *Er oğlï muŋazmas, ït oğlï külärmäs* – it bolasi doim iztirobda qolmaydi, biror tadbir bilan undan qutuladi, it bolasi otdek doim chalqancha yota olmagani kabi (MK,II,56). “Hibatul haqoyiq” asarida *oğul* “o‘g‘il” semasida ishlatilgan: *Adib Ahmad oğlï yoq ol hič šaki* (DTS,364). Alisher Navoiy asarlarida ham o‘zining asl ma’nosida uchraydi: *Taŋ atqač er va xatunï kasb üčün tarqašïb, oğul va qïzlarï köy va köčädä büträšib* (MQ,30).

Hozirgi o‘zbek tilida *o‘g‘il* so‘zi faqatgina inson bolasiga nisbatan ishlatiladi (O‘TIL,V,203). Demak, bugungi kunda leksemaning ko‘hna manbalarda ko‘rsatilgan uchinchi ma’nosi iste’moldan chiqqan.

Qïz leksemasi qadimgi turkiy til hamda XI asr manbalarida quyidagi ma’nolarda ishlatilgan: 1) “voyaga yetmagan qiz”: *Oğul sekizinč orduluğ qïz törtünč orduluğ bolur* – O‘g‘il sakkizinchi saroyda, qiz esa to‘rtinchi saroyda bo‘ladi; 2) “qiz” (farzand): *Yalawač aŋa berdiki eki qïzïn* – payg‘ambar unga ikki qizini nikohlab berdi; 3) “xizmatkor, oqsoch”: *Anasï qatun ... beš yüz qïzlar quwraqïn* – uning onasi zodagon ayol ...atrofida 500 ta oqsochi bor (DTS,449). “Qisasi Rabg‘uziy”da so‘zning dastlabki ikkita semasi qayd qilingan: *Qačan Qābil tuğdï ersä anïŋ birlä bir qïz tuğdï* (15v3); *Nuhnuŋ bir qïzï bar erdi, birägü qolğalï keldi, beräyin tedi* (27v10) [– Б.145.]

Mazkur ikki ma’no “Mahbub ul-qulub” asari va hozirgi o‘zbek adabiy tilida (O‘TIL,V,292) ham saqlanib qolgan: *Har qizki, erur yomon liqolig* (MQ,.81); *Taŋ atqač er va xatunï kasb üčün tarqašïb, oğul va qïzlarï köy va köčädä büträšib* (MQ,30).

Yigit leksemasi asarda “yigit, yosh” ma’nosini anglatgan: *Saādatmand ul yigitdürki, šahvat mayli qïlmas*(MQ,63).. Atama ilk bor “Oltun yorug‘” asarida kelgan: ... *qarïlarïğ yigit qïlmaq* – qarilarni yigit qilmoq (DTS,260). XI asr manbalari, xususan, “Devon”da o‘z semasini davom ettirgan: *yigit yazuqsuz bolmas* (MK,III,24). Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy boshqa bir joyda *jigit*ni «har narsaning yoshi» deb izohlaydi (MK,III,14). Demak, bu so‘z eski turkiy tilda insondan boshqa narsalarga nisbatan ham qo‘llangan. U hozirgi o‘zbek tilida faqatgina odam bolasiga nisbatan istifoda etiladi. Ko‘rinadiki, *jigit* leksemasining XI asrdan boshlab faqat insonga nisbatan qo‘llaniib, ma’nosi toraygan. Lekinbugungi kunga kelib mazkur so‘z semantikasida kengayish sodir bo‘lgan. Masalan, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da bu so‘zning bir nechta ma’nolari mavjud: «jinsiy va jismoniy jihatdan voyaga yetgan erkak», «umuman, yosh erkak, yosh kishi», ko‘chma ma’noda «er kishi, jasur odam, mard», «qizning ko‘ngil qo‘ygan kishisi, sevgilisi», «biror harbiy to‘daga, guruhga mansub bo‘lgan erkak kishi», «o‘ziga nisbatan yoshi kichik kishiga murojaat» (O‘TIL,II,266-267).

“Kuz bilan bahor oralig‘idagi fasl” tushunchasini anglatgan **qïš** so‘zi birinchi marta Bilga xoqon bitigtoshida keltirilgan: *Qïšïn Qïtay tapa sülädim* – Qishda Xitoyga qarshi qo‘shin tortdim (DTS,448). Leksema “Devonu lug‘atit turk” da o‘zining asl ma’nosini saqlaydi: *Qïš qonuqïot* – (I,320). Atama eski o‘zbek tili, “Mahbub ul-qulub”da ham qo‘llanishda bo‘lgan: *Bir qïš kečäsi ma’šuqi devāri tubida vasli umidi bilä pābast* (MQ,37). Zamonaviy o‘zbek adabiy tilida “yil fasllaridan biri (O‘rta Osiyoda dekabr, yanvar va fevral oylarini o‘z ichiga oladi)” bildiradi (O‘TIL,V,333).

Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarida **az-** “to‘g‘ri yo‘ldan adashmoq” ma’nosida ifodalangan: *Takabbur lïbasïn keyib az salïn.* Ushbu so‘z ilk bor Turfon matnlarida ayni ma’noda keltirilgan: *Yol azsar ew tapmaz* – yo‘ldan adashgan kishi uyini topa olmas (DTS,72).Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida “yo‘ldan chiqmoq”, “adashmoq” ma’nolarida uchraydi: *Azïp*

yügrür erdim ayu berdi yol – yo‘ldan adashib yurar edim, tangri yo‘l ko‘rsatdi; *köniliktä azmïš özüm* – men haqiqat yo‘lidan adashdim (DTS,72).. Ushbu fe’l tadqiq qilinayotgan manba va hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham dastlabki ma’nosida ko‘zga tashlanadi. *Tā qaysi arïğ tiynatlïğ yoldïn azmïš bolğay* (MQ,37); *Egri — ozadi, to‘g‘ri — o‘zadi (O‘TIL,II,98).*

Garchi dostonda **aq** sifati ishlatilmagan bo‘lsa-da, u ilk bor “Irq bitig”da “kulrang, bo‘z” (ot tusi) ma’nosida ishlatilgan: *Aq bisi qulunlamïš* – kul rang biyasi qulunladi. Mazkur leksik birlik Turfon matnlarida ko‘chma ma’noda “yaxshi ta’sir ko‘rsatadigan, ko‘ngildagidek, ijobiy” semasini anglatgan: *Aq qïšïn az* – insonga xush yoqadigan ishing kam (DTS,48). Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida so‘zning dastlabki ma’nosi saqlanib qolgan holda, uning yangi “oq” semasi rivojlanadi: *Aq bulut* (MK,I,258). Havzrat Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida leksemani ushbu ma’noda istifoda qilgan: *Andïn kečälär atrāk zuafāsi iši orğuštak va atfāl varzïšï aq söŋäk* (MQ,10). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur sifatning “qor, sut, paxta rangidagi”, “oq tusga moyil, tiniq”, “aroq” kabi 11 ta ma’nosi keltiriladi *(O‘TIL,II,183).*

Oŋ leksik birligi moniy yozuvidagi yodnomalarda, Mahmud Koshg‘ariy “Devon”i hamda Turfon matnlarida “gavdaning yurak o‘rnashgan tomonga qarama-qarshi joylashgan tarafi”, “to‘g‘ri” ma’nolarini bildirgan (DTS,367). Leksema keyingi davrlarda ham zikr qilingan ma’nolarda qo‘llanilgan. Buni “Mahbub ul-qulub” asarida yaqqol ko‘rish mumkin: “o‘ng”: *...sol közni xār, oŋ közni aziz bilgäy* (MQ,49); “to‘g‘ri”: *Xatā rāyi oŋ kelmäsä, daxlsizlärgä širkat* (MQ,12). Demak, *oŋ* so‘zining zikr etilgan sememalaridan birinchisi denotativ, qolgani konnatativ ma’no hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksemaning qayd etilgan semalari bilan birga qo‘shimcha ma’nolari ham kuzatiladi *(O‘TIL,V,162-163).*

“Quruqlikning suvga to‘lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi”ni ifodalagan **köl** (O‘TIL,II,517) so‘zi Kultegin bitigtoshi va Turfon matnlarida uchraydi: *Quğu quš učtï kölingä qonmas* - oqqush o‘z ko‘liga qo‘nmasdan uchib ketdi (DTS,313). “Devon”da quyidagi ma’nolarda kelgan: “hovuz”, “to‘planib qolgan suv, ko‘l”; “dengiz”: *köl köpügi* (MK,III,148-149). O‘rganilayotgan yodnomada leksemaning bosh (denotativ), ya’ni “suv to‘planadigan joy, ko‘l” ma’nosi mavjud*: Čun ul zebi tāj mulk xirāji erdi, tapqanğa köl nimä va kirāmand sila va’da boldï* (MQ,45).

NATIJALAR VA MUHOKOMA

Til taraqqiyoti davomida bu so‘z ham semantik differensiatsiyaga uchragan: «suv saqlash uchun xizmat qiladigan, maxsus qazilgan chuqurlik» (O‘TIL,V,542) *hovuz* leksemasi bilan; «quruqlikning suvga to‘lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi» (O‘TIL,II,453) *ko‘l* leksemasi bilan; «okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo‘lagi, okeanning quruqlik yoki orol va yarimorollar bilan ajralgan qismi» (O‘TIL,I,597) *dengiz* leksemasi bilan ataladigan bo‘lgan. *Köl* so‘zining dastlab har qanday suv havzasiga nisbatan qo‘llangani, keyinchalik ma’noda torayish voqe bo‘lib, daryo, dengizlarni anglatmay qo‘ygani mutaxassislar tomonidan ham ta’kidlanadi (O‘TEL,I,25). Qadimda *daryo, dengiz* so‘zlari o‘rnida *suw* so‘zidan ham foydalanilgan: Masalan, *Etil suwï aqa turur* (I,67). *Etil* qipchoq ellaridagi bir daryoning nomi, I.Kormushin izohiga ko‘ra, *Etil* Volga daryosi yoki Volga daryosi Kama irmog‘i bilan (I,67). Demak, hozirgi o‘zbek tilida *ko‘l* so‘zining, yuqorida ta’kidlanganidek, faqat bitta ma’nosi, ya’ni «quruqlikning suvga to‘lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi» ma’nosi mavjud. «Devon»da, shuningdek, «dengiz» ma’nosini ifodalovchi *teŋïz* so‘zi ham qo‘llangan (III,240). Asarda *köl* so‘zining ko‘chma ma’noda *köl ärkin* tarzida qarluqlarning kattalariga nisbatan qo‘llangani haqida ham ma’lumot beriladiki, bu «limmo-lim ko‘l kabi aqli ko‘p, aqli to‘lgan, aqli to‘plangan odam» demakdir (I,90) [2–B.60.]..

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan turkiy so‘zlar. Leksema ifodalagan tushunchani anglatuvchi boshqa so‘zning shakllanishi natijasida (u ichki imkoniyat asosida yasalgan yoki olinma leksema bo‘lishi mumkin) uning iste’mol doirasi toraya boradi. Bir qator semalari bilan faol qo‘llangan so‘zlar semantikasida torayish kuzatiladi. Keng qo‘llanilmagan leksemalar iste’moldan chiqadi, arxaizmga aylanadi. Bu jarayon tilning ichki qonuniyati asosida yuz beradi [3.-B. 116.].

Aytish joizki, “Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llanishda bo‘lgan bir qator leksik birliklar zarur turli yangi so‘zlar paydo bo‘la borganidek, turmush uchun keraksiz so‘zlar sifatida bugun iste’moldan chiqib ketgan. Ular jumlasiga quyidagi so‘zlarni kiritish mumkin: *tüz* – to‘g‘ri; aynan, bir

xil, *ilik* - qo‘l, *abušqa* - keksa*, ayağ* - qadah*, bürünjäk* - ro‘mol, *yağlïq* - ro‘mol, *ötmak* - non, *bürč* - qarz, *ağïr* - qimmat, *qamğaq* – o‘simlik, *bilig*, *čerik* – qo‘shin, *ayalğučï* - ashulachi, *itmäkči* – navvoy, *asïğ* – foyda, *arïğ* – toza, *suyurğal* – sovg‘a, *tunbän* – ishton, *bavarčï* – oshpaz, *yasaq* – tartib, qoida, *öksük* – kam, oz.

“Ko‘paytirmoq, qo‘shimcha qilmoq” ma’nosidagi **aš-as-** (DTS,62) fe’li bilan **-(ï)ğ** qo‘shimchasidan yasalgan **asïğ** so‘zi Turfon matnlarida “foyda” ma’nosini anglatgan: *Yunt kündä asïğ bolur* (DTS,60). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida “naf”, “foydali” semalarini bildirgan: *Öküš sözdä artuq asïğ körmädim* – ko‘p so‘zlashda foyda, naf ko‘rmadim (DTS,60). Qayd etilgan so‘z “Hibatul haqoyiq” asarida “daromad”, “manfaat, ijobiy natija” ma’nolarida qo‘llanishda davom etgan: *Tavar asïğ nemiš barursan yalïŋ; Baqïğlï, oquğlï asïğ alsu tep [*[4]–B.37.]

Alisher Navoiy tekshirilayotgan asarda mazkur leksemaning “daromad”, “naf, manfaat” semalaridan foydalangan: *Mundaq kišiniŋ maqsudï tamām asïğ bolmasa va bu asïğ husuli üčün ranji qattïğ bolmasa*...(MQ,26); *Soŋïda pušaymānlïğï ne asïğ* (MQ,80). Ayni paytda, “Mahbub ul-qulub”da ushbu so‘zning arabcha **fāyda, naf** ma’nodoshlarini uchratamiz: *Muqbi ladab va tavāzu’ fāydasidin gavxari maqsud tapïb* (MQ,45); . ...*bihār amvāji talātumdïn naf va zarar körgän* (MQ,26).

Tüz so‘zi Kul tegin bitigi, Turfon matnlari, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk” manbalarida “tekis yer”, “bir xil, aynan”, “ishonchli, haqiqiy” (ko‘chma) kabi ma’nolarda ko‘zga tashlansa (DTS,602), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uning “sayhon, tekislik”, “bo‘z yer” (O‘TIL,II,218) sememalari ko‘rsatib o‘tilgan. “Tafsir”da “tik, to‘g‘ri”, “tekis yer” ma’nolarini anglatgan: *Boyï tüz yüzi körklüg* (138,1); *Tamuğqa tüšärlär netäg kim tewä kabi tüzdä tayïrlar* (131,10) [[5] – B.83].

Tadqiq etilayotgan manba tilida leksemaning uchta ma’nosi kuzatiladi:

a) “bir xil, aynan”: *Šaheki, sïdqï anïïŋ tengri birlä tuz bolğay* (MQ,15;

b) “yaxshi, durust”: *Muharrirki, tahriri tüz pisandidadur, agar bir bayt bitir, agar yüz* (MQ,21);

v) “to‘g‘ri”: *Näsavāb xayālï tüz čïqmasa* (MQ,12); ...*tüz yolğa kirarniŋ hidāyati bu ermiškim*...(MQ,37). Bu o‘rinda leksema asardagi turkiy **oŋ**, forsiy **rāst** va arabcha **haq, haqiqiy** istilohlari bilansinonimik qatorni tashkil etgan: *Xatā rāyi oŋ kelmäsä, daxlsizlarga širkat, balki naqiz tutqanlarğa ziyāa tuhmat* (MQ,12); *Bāvujude ulki, on sözidin ittifāqe biri ham rāst kelmäs* (MQ,26); *Haq anïŋ qašïda bātil, xiradmand anïŋ aqidasida jāhil* (MQ,12); *Ma’ni ahli haqiqati maxfiy va surat ahliniŋ haqiqiy da’vi* (MQ,36).

«Tozalanmoq, toza bo‘lmoq» ma’nosini bildirgan **arï-** (DTS,51) fe’li bilan **–ğ** qo‘shimchasidan yasalgan **arïğ** so‘zi qadimgi turkiy tilda «toza», «olijanob», «haqiqiy» ma’nolarini ifodalagan bo‘lsa (DTS,51-52), “Qisasi Rabg‘uziy” asarida «toza», «pok, gunohsiz» semalarini anglatgan: *Aydï: bu nāvdāndin aqa turğan suw arïğ-mu ya arïğsïz-mu erkän?* (100r20); *Yusuf aydï: men arïğ-men, yazuqïm yoq* (84r9) [[6]– B.56.].

“Mahbub ul-qulub” asarida ushbu atamaning «toza» ma’nosi kuzatiladi: *Tā qaysi arïğ tiynatlïğ yoldin azmïš bolğay va qayu pāk xilqatlïğ jādadïn čïqïb* (MQ,37). Bu orqali zikr etilgan leksema asardagi fors-tojikcha **tāza, pāk** o‘zlashmalari bilan sinonimik munosabatga kirishgan: *Ačuğ čehrasi tāza guldin nišān* (MQ,75); *Tüssä najāsat ičrä yuğay kimsä anï pāk* (MQ,81).

“Bilim” tushunchasi ilk marta Kul tegin bitigtoshida “bilim-tajriba orttirmoq” ma’nosini anglatgan **bil-** fe’lidan **-(i)g** affiksi orqali yasalgan (O‘TEL,I,50) **bilig** leksemasi yordamida ochib berilgan: *Ayïğ bilig anta öyür ermiš* – ular u yerdan o‘zlariga yomon bilimlarni o‘zlashtirib olgan (DTS,99). Leksema “Devonu lug‘atit turk” da o‘zining asl ma’nosini davom ettirgan: *Ula bolsa yol azmas, bilig bolsa söz yazmas* – belgi bo‘lsa odam yo‘ldan adashmaydi, bilim bo‘lsa kishi so‘zda yanglishmaydi (MK,I,108). Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy ushbu so‘zning “aql, idrok”, “hikmat” (I,367) ma’nolarini ham ko‘rsatib o‘tadi: *Bilig kiši ara ülüglüg ol* – aql insonlar o‘rtasida taqsimlangan (DTS,100). Berlin to‘plamidagi uyg‘ur yozuvida bitilgan hujjatlarda leksik birlikning to‘rtinchi, ya’ni “ehtiyotkorlik” ma’nosi uchraydi: *Yiti biligin yarmïš kergäk* – yarani juda ehtiyotkorlik bilan ochish lozim (DTS,100). “Qisasi Rabg‘uziy” tilida **bilig** leksemasi asosan “bilim – tajriba”, “hikmat” semalarini anglatish uchun xizmat qiladi: *Sulaymān aydï bu biligni kimdin ögrändiŋ?* (139v8); *Aymïšlar: ul ganjda bir altun taxtada bar edi bilig sözläri bitiglig, söz bu erdi* (131r3) [[7] – B.136.].

“Mahbub ul-qulub” asarida leksik birlikning **bilik** fonetik shakli ishlatilganiga guvoh bo‘lamiz: *Bilikig‘a mag‘rur, bilur elga ma’yub va tengrig‘a maqhur* (MQ,57).

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, shoir keltirilgan ma’noni yoritish uchun arabcha ’**ilm** ma’nodoshidan ham foydalangan: ...*bilmäs ilmni ayturğa murtakib bolmasa...* (MQ,18). Bu so‘z asli “bildi, bilimli bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi **‘ailma** fe’lining I bob masdari hisoblanib, ilk marta “Qutadg‘u bilig” (DTS,209) dostonida uchraydi. O‘z-o‘zidan yon bo‘ladiki, o‘zlashma XI asrdan boshlab *bilig* so‘zi bilan sinonim sifatida qo‘llanib kelingan (O‘TEL,II,161).

XULOSA

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi.Shundan kelib chiqqan holda «Mahbub ul-qulub»dagi turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohalardagi o‘zgarishlar, yangilanishlar ta’sirida tilning lug‘at boyligida yangi so‘z va atamalarning vujudga keladi, ayni paytda, ma’lum leksemalar eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanadi.

Shartli qisqartmalar

DTS – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969.- 676 с.

ESTYA – 1) Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М.:Наука, 1974. -767 с.

MK– Mahmud Koshg’ariy. Devonu lug’otit turk / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. I-III. –T.: Fan, 1960-1963.

MQ – Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik. O’n to'rtinchi tom. – Toshkent: Fan. 1998.

O‘TIL – O’zbek tilining izohli lug’ati. I-V. -T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdushukurov B. Turkiy manbalar leksikasi. – Toshkent: BOOKMANY ‘RINT, 2022. – B.145. (Abdushukurov B. Lexicon of Turkish sources. - Tashkent: BOOKMANY 'RINT, 2022. - P.145.)

2. Rozikova G. Mahmud Qoshg’ariy «Devonu lug’otit turk» asaridagi ot leksemalarning semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. dok. diss. – Farg’ona, 2021. –B.60. (G. Semantic, functional and stylistic characteristics of noun lexemes in the work "Devonu lug'otit turk" by Mahmud Kashgari. Philol. science. doc. diss. - Ferghana, 2021. - B.60.)

3. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O’zbek adabiy tili leksikasi tarixi. –T.: Fan, 2008. –B. 116.(Dadaboyev H., Hamidov Z., Kholmanova Z. History of the lexicon of the Uzbek literary language. -T.: Science, 2008. -B. 116.)

4. Sindorov L. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul - haqoyiq” dostoni leksikasi. – Toshkent: Muharrir, 2022. –B.37. (Lexicon of Sindorov L. Ahmad Yugnaki's epic "Hibat ul-hagayiq". - Tashkent: Muharrir, 2022. - P.37.)

5. Sindorov L. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul - haqoyiq” dostoni leksikasi. – Toshkent: Muharrir, 2022. –B.83. (Lexicon of Sindorov L. Ahmad Yugnaki's epic "Hibat ul-hagayiq". - Tashkent: Muharrir, 2022. - P.83.)

6. Abdushukurov B. Turkiy manbalar leksikasi. – Toshkent: BOOKMANY RINT, 2022. – B.56. (Abdushukurov B. Lexicon of Turkish sources. - Tashkent: BOOKMANY RINT, 2022. - P.56.)

7. Abdushukurov B. Turkiy manbalar leksikasi. – Toshkent: BOOKMANY RINT, 2022. – B.136. (Abdushukurov B. Lexicon of Turkish sources. - Tashkent: BOOKMANY RINT, 2022. - P.136.)